



TIBBIYOTNOMA

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI NASHRI № 09 2021 YIL 27 OKTYABR

SHAVKAT MIRZIYOYEV O'ZBEKISTON PREZIDENTI SAYLOVIDA ISHONCHLI G'ALABA QOZONDI

Markaziy saylov komissiyasining Matbuot markazida MSK Raisi Zayniddin Nizomxo'jayev ishtirokida matbuot anjumani o'tkazildi.



24-oktyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi bo'lib o'tdi.

Qayd etilishicha, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi xalqaro mezonlar va standartlarga mos milliy saylov qonunchiligimizga, unda belgilangan ochiqlik, oshkorlik, erkinlik va adolat kabi umume'tirof etilgan demokratik prinsiplarga to'la mos holda, ko'tarinki ruhda o'tkazildi.

Bugun xalqchil va demokratik tamoyillarga asoslangan Yangi O'zbekiston o'tmish ajdodlarining tarixiy an'analari davom ettirib, yanada boyitib, har tomonlama muttasil rivojlanayotgan zamonaviy davlat sifatida butun dunyoning e'tiborini tortmoqda. Prezident saylovi xalqimiz yuksak tafakkuri va donishmandligining yorqin ifodasi bo'ldi. Ushbu saylov Yangi O'zbekistonda barcha sohalar, jumladan, siyosiy-huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishlarda amalga oshirilayotgan izchil va jadal islohotlarning uzviy davomidir, — dedi MSK Raisi Z. Nizomxo'jayev.

So'nggi besh yil mobaynida mamlakatimiz milliy saylov qonunchiligida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Nufuzli xalqaro ekspertlar ta'kidlaganidek, Yangi O'zbekistonda saylov qonunchiligini izchil takomillashtirish hamda saylovlarni o'tkazish amaliyoti sifat jihatidan yangi pog'onaga ko'tarildi. Bu galgi Prezident saylovi ilk bor 2019-yilda qabul qilingan Saylov kodeksi asosida o'tdi.

Saylov qonunchiligiga joriy yilning 8-fevral va 31-may kunlari kiritilgan o'zgartishlar va qo'shimchalarga binoan, eng avvalo, saylov jarayoni ishtirokchilari, ya'ni saylovchilar, siyosiy partiyalar, saylov komissiyalari, ommaviy

axborot vositalari hamda kuzatuvchilarning huquqlari va kafolatlari sezilarli darajada kengaytirildi. Zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish orqali saylov jarayonlarini boshqarish axborot tizimi yanada takomillashtirildi.

Barcha darajadagi saylov komissiyalari o'z ishini Saylov kodeksi talablari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini o'tkazish bo'yicha asosiy tadbirlar dasturi hamda Kalendar rejasiga binoan, qonuniylik, mustaqillik, xolislik, ochiqlik, oshkorlik va shaffoflik tamoyillariga to'la amal qilgan holda tashkil etdi.

Siyosiy partiyalar va Prezidentlikka nomzodlar uchun saylov kampaniyasi davrida saylovoldi tashviqoti uchun teng va keng imkoniyatlar yaratildi. Saylov uchastkalarida pandemiya sharoitida aholi salomatligini ishonchli muhofaza qilish, saylovchilar va saylov jarayoni boshqa ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlash uchun zarur sharoitlar yaratildi.

Prezident saylovini nufuzli xalqaro tashkilotlar, jumladan, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotining Parlament Assambleyasi hamda Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Mustaqil davlatlar hamdo'stligi va MDH Parlamentlar Assambleyasi, Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi, Turkiy kengash Parlament Assambleyasi hamda Islom hamkorlik tashkiloti kabi yigirmaga yaqin xalqaro tashkilotlardan va ellikka yaqin xorijiy davlatlardan jami mingga yaqin xalqaro kuzatuvchi hamda 1 ming 672 nafar mahalliy va xorijiy mamlakatlarning yirik ommaviy axborot vositalarining vakillari bevosita kuzatib va yoritib bordi.

Shuningdek, saylovda ishtirok etgan beshta siyosiy partiyalardan va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridan 64 ming 450 nafar vakil saylovni bevosita kuzatib bordi.

Birinchi marta mamlakatimizning tuman va shaharlaridagi 207 ta saylov uchastkasiga o'rnatilgan 414 ta videokamera orqali uzatilgan onlayn translyatsiyani millionlab odamlar kuzatib bordi.

Saylovchilar ro'yxatiga kiritilgan 20 million 158 ming 907 nafar saylovchidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida chet ellarda ovoz bergan vatandoshlarimiz bilan birga

hisoblaganda 16 million 212 ming 343 nafar saylovchi ishtirok etdi. Bu saylovchilar umumiy sonining 80,4 foizidan iboratdir. 421 ming 176 nafar saylovchi joriy yilning 14-oktyabrdan 20-oktyabrgacha o'tkazilgan muddatidan oldin ovoz berish imkoniyatidan foydalandi.

Saylovda konsullik ro'yxatida turgan turmaganligidan qat'i nazar xorijda istiqomat qilayotgan barcha vatandoshlarimiz uchun 37 ta davlatda tashkil etilgan 54 ta saylov uchastkasida ovoz berish imkoniyati yaratildi. Avvallari faqat konsullik vakolatxonalaridan rasman ro'yxatdan o'tgan O'zbekiston fuqarolariga saylovlarda qatnashardi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga saylov o'tkazuvchi saylov uchastkalarining barchasida saylov byulletenlari sanab chiqildi.

Siyosiy partiyalar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga ko'rsatilgan nomzodlar, O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasidan nomzod Bahrom Abduhalimov — 3,4 foiz, O'zbekiston Ekologik partiyasidan nomzod Narzullo Oblomurodov — 4,1 foiz, O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasidan nomzod Alisher Qodirov — 5,5 foiz, O'zbekiston Xalq demokratik partiyasidan nomzod Maqsuda Vorisova — 6,6 foiz, Tadbirkorlar va ishilarmonlar harakati — O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan nomzod Shavkat Mirziyoyev — 80,1 foiz ovoz oldi.

O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksiga ko'ra, ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilarning yarmidan ko'pining ovozi, ya'ni 50 foizdan ortiq ovoz olgan nomzod Prezident etib saylangan, deb hisoblanadi.

Prezidentlikka o'tkazilgan saylov bo'yicha saylovga doir qonunchilik talablari qo'pol ravishda buzilganligi holatlari haqida xabar va ma'lumotlar tushmadi. Lekin Markaziy saylov komissiyasiga saylovchilar va ijtimoiy tarmoqlardan saylovlarni o'tkazish jarayoniga doir holatlar bo'yicha muayyan murojaatlar kelib tushdi.

Ularning barchasini qonunda ko'rsatilgan muddat va tartiblarda ko'rib chiqish va hal etish yuzasidan tegishli chora-tadbirlar ko'rilmog'da.

Hozirgi vaqtda Markaziy saylov komissiyasi okrug saylov komissiyalari tomonidan taqdim etilgan bayonnomalar hamda boshqa hujjatlarni ko'rib chiqmog'da. Markaziy saylov komissiyasi faqat shundan so'ng Prezident saylovi yakunlari to'g'risida qaror qabul qiladi.

**Nurillo NASRIYEV,
O'ZA muxbiri**

21-oktyabr O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun



TIL – MILLAT KO'ZGUSI

Toshkent tibbiyot akademiyasida bo'lib o'tgan tadbir orqali ona tilimizga munosabatning mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning bevosita tashabbuskorligi ostida o'zbek millatiga, xalqimiz tarixiga bo'lgan e'tibori darajasiga ko'tarilib borayotgani haqida so'z bordi.

«O'zbekiston» radiokanali

ma'naviyat bo'limi muharriri, shoir Berdi Rahmat va O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasi bo'lim mudiri, taniqli shoir va tarjimon Abdumajid Azimlar qatnashgan tadbir talabalar tomonidan tayyorlangan badiiy chiqishlar bilan yanada qiziqarli o'tdi.

Inson tafakkuri mahsuli til orqali namoyon bo'ladi. Til so'zlashish, muloqot fikr almashish vositasidir. Har bir millatning ma'naviy qiyofasi esa avvalo uning ona tiliga bo'lgan e'tibori muloqoti orqali kuzatiladi. Bizning ona tilimiz asrlar silsilasida toblangan, shakllangan, sayqallangan – o'zbek tilidir.

Muqaddas ona tilimiz necha asrlardan buyon Navoiy qalamida, Bobur she'rlarida, Qodiriy romanlari-yu, Qahhor hikoyalari sayqallandi, rivoj topdi. Bugun esa ona tilimiz jahon minbarlarida jarang sochmoqda. Ana shunday qadri yuksalayotgan o'zbek tili o'zbek xalqining faxri-iftixoridir. Bugun biz ona tilimizga davlat tili maqomi berilganligining 32 yillik shodiyonasini qabda g'urur bilan nishonlamoqdamiz. Zeroki dunyoda tillar ko'p ammo o'zbek tilining o'ri va nufuzi o'zbek xalqi uchun beqiyosdir.

Til – millat qiyofasining bir bo'lagi. Dunyodagi barcha xalqlar o'zining milliy rasmiy tiliga ega deb aytolmaymiz. Chunki bu xalqning milliy mustaqilligi bilan bog'liq. Mutaxassislarining so'zlariga qaraganda, bugungi kunda har ikki haftada bitta til yo'qolib bormoqda. Bu o'z navbatida o'sha tilda so'zlashuvchi xalqlarning yo'qolishini anglatadi. YUNESKO vakillarining so'zlariga qaraganda, qachonlardir odamlar so'zlashadigan tillarning soni 7 mingdan 8 mingtagacha yetgan bo'lsa, bugungi kunda sayyoramizda 6 mingta til mavjud bo'lib, ularning 90 foizi yo'qolib ketish arafasida turibdi.

Bu asosan sivilizatsiya tufayli madaniyatidan ayrilayotgan kam sonli millatlarning tillaridir. Bu tillarda so'zlovchi aholining ayrimlari

yo'zuvga ega bo'lsa, ayrimlari bundan bebahradir. Masalan, Afrika tillarida so'zlashuvchi aholining 80 foizi hamon o'z yozuvlariga ega emas. Minglab tillardan ta'lim tizimida foydalanishning imkoniyati yo'q. Chunki aynan til tufayli xalq va elatlarning madaniyati, urf-odatlari saqlanib qoladi, sayyoramizda yashayotgan xalqlarning o'tmishi va madaniyati

ma'lum ivrit tili ham qayta iste'molga kiritildi. Bugungi kunda ivrit tilida 9 million kishi suhbatlashadi.

Til tufayli xalq va elatlarning madaniyati, urf-odatlari saqlanib qoladi, sayyoramizda yashayotgan xalqlarning o'tmishi va madaniyati hurmat qilinadi. O'zbek tili o'z so'zi bilan asrlar davomida doston va she'rlarda, xalqning boy ma'naviy o'tmishida,

til rivoji uchun qilinayotgan ulkan islohotlarga to'xtalib o'tdi. O'quvchi yoshlarga til imkoniyatlaridan unumli foydalanish joiz ekanligini ta'kidladi. Tadbir Tillar kafedrasida o'qituvchilari D. Ismoilova, D. Shodiyeva, G. Sodiqovlar tashabbuslari ostida ko'tarinki ruhda bo'lib o'tdi. Ona tili bayramida O'zbek Milliy teatr aktyorlarining tashrifi tadbiri yanada mazmunan boyitdi. Tadbir jarayonida birinchi bosqich o'quvchilari tomonidan «Qadring baland ona tilim!» mavzudagi devoriy gazetalar tanlovi g'oliblarining taqdirlash jarayonlari ham bo'lib o'tdi.

Qachonki bolalar o'z ona tillarida o'qishni to'xtatar ekan, o'sha til yo'qolib ketish arafasiga kelib qoladi. Tillarni saqlab qolish bu o'sha xalqning madaniyati, urf-odati, rasm-rusumlarining saqlanib qolishini anglatadi. Chunki, xalq taqdiri til taqdiri bilan bevosita bog'liq. Til har bir

millat madaniyatining o'zigidir. Shu sababli ham tiling saqlanishi xalq taraqqiyoti va kelajagini belgilaydi. Til xalqni birlashtiradi, tarbiyalaydi, o'qitadi, urf-odat, an'analarini saqlaydi. Shunday ekan, ona tilimizning xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini yuksaltirishda, uni milliy va umumbashariy tushunchalar asosida taraqqiy etgan tillar safiga qo'shishda har birimiz tilimizga chuqur hurmat bilan yondashimiz kerak. O'zbek tilining nufuzi uning dunyo minbarlaridan jarang sochishi asrlar davomida umrboqiy bo'lsin.

Nigora HAKIMOVA,

Toshkent tibbiyot akademiyasi akademik litseyi Yoshlar bilan hamda ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari

QADRI BALAND ONA TILIM

hurmat qilinadi. Tilshunoslari yo'qolib ketish arafasida turgan tillarni saqlab qolishning imkoniyatlari hozircha qo'ldan boy berilmaganini aytishadi. Tillarni saqlab qolish uchun esa, BMT ekspertlarining fikricha, bu tillardan ta'lim tizimida keng foydalanishni yo'lga qo'yish kerak. YUNESKO tomonidan nashr qilinadigan «Yo'qolib ketish xavfi arafasida turgan jahon tillari atlasida»da Yevropadagi 50 ta, Tinch okeani mintaqasida esa 200 ta til yo'qolib ketish arafasida ekan ta'kidlanadi. Olimlar insoniyat tarixida 9000 mingdan ortiq til yo'q bo'lib ketganini aytishadi. Nafaqat bosib olingan hududlardagi xalqlarning tillari, balki fothlarning tillari ham yo'qolib ketgani tarixdan

shakllanib, rivojlanib bordi. Bugun yurtimizda O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining 32 yillik shodiyonasi keng nishonlanmoqda. Xalqimizning ma'naviy qiyofasi timsoli hisoblanmish ona tilimiz o'zbek tili bayrami respublikamizda qator muassasalar, tashkilotlar, xalqimizning o'z uyi, har bir o'zbek qalbida g'urur va iftixor bilan nishonlanmoqda.

Jumladan, Toshkent tibbiyot akademiyasi akademik litseyida ham «Qadring baland ona tilim!» mavzusida tantanali tadbir bo'lib o'tdi. Tadbirni akademik litsey direktori A. Shermuratov kirish so'zi bilan ochar ekan o'zbek tilining nufuzi beqiyos o'ri haqida to'xtalib, bugungi kunda mamlakatimizda



18 noyabr – O‘zbekiston Respublikasi davlat bayrog‘i qabul qilingan kun

BAYROG‘IMIZ – FAXRU IFTIXORIMIZ

Ozod va obod Vatanimiz — O‘zbekistonning bayrog‘i bizni ulug‘ maqsadlar tomon boshlovchi buyuk mash‘aladir.

Davlat ramzlari har bir mamlakatning suvereniteti va mustaqilligini ifodalovchi muqaddas timsollardir. O‘zbekistonning davlat ramzlari xalqimizning shon-sharafi, tarixiy xotirasi va intilishlarini o‘zida mujassam etib, shu yurtda yashovchi har bir fuqaroga g‘urur, faxr va iftixor bag‘ishlaydi.

Bayrog‘imiz o‘zida butun O‘zbekiston xalqining asriy orzu-istaklari, g‘ayrati va shijoatini, xalqimizga xos mehmondo‘stlikni mujassam etgan. Milliy bayrog‘imizning davlat idora va muassasalari, o‘quv yurtlari, O‘zbekiston a‘zo bo‘lgan xalqaro tashkilotlar, chet ellardagi elchixonalar va doimiy vakolatxonalarimiz peshtoqida hilpirab turishi, turli bayram va tantanalarda, mamlakatimiz vakillari qatnashayotgan xalqaro miqyosdagi siyosiy, madaniy-ma‘rifiy tadbirlarda, nufuzli sport musobaqalarida Vatanimizning sha‘ni, xalqimizning g‘ururini yorqin aks ettirishi barchamizga iftixor baxsh etadi.

Davlat ramzlari hamisha muqaddas hisoblangan. Chunki u xalqning o‘tmishi, buguni va kelajagini o‘zida mujassam etgan Vatanning yorqin timsolidir. O‘zbekistonimiz istiqolga erishgach, eng avvalo, davlatimiz ramzlari tasdiqlandi. 1991 yil 18 noyabr xalqimiz yodida o‘chmas va qutlug‘ sanalardan biri bo‘lib qoldi. Shu kuni “O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi.

Ta‘kidlash lozimki, bayrog‘imiz respublikamiz dunyoda xalqaro hamjamiyatning tenglar ichra teng a‘zosi ekanligini anglatadi va o‘zida milliy-madaniy an‘analarimizni mujassamlashtiradi. U bizning hech kimdan kam emasligimiz hamda aslo kam bo‘lmashimizni yaqqol namoyon etadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, bayrog‘imizni e‘zozlash fuqarolarda o‘zining qadr-qimmatiga, o‘z mamlakati



va shaxsiga bo‘lgan ishonchni yanada mustahkamlaydi.

Bugun turli bayram tantanalari, mamlakatimiz a‘zolari qatnashayotgan xalqaro miqyosdagi siyosiy, madaniy-ma‘rifiy tadbirlar, nufuzli sport musobaqalarida ham bayrog‘imiz Vatanimizning sha‘ni, xalqimizning g‘ururini yorqin aks ettirmoqda.

Davlatimiz bayrog‘i tinch va osoyishta, ozod hamda erkin hayotimiz, yorug‘ kelajagimizga bo‘lgan ishonchimiz timsoli sifatida doimo baland hilpirayversin.

Hamidulla MAGZUMOV,
dotsent

HAMKORLIK SHARTNOMASI IMZOLANDI

TTA ilmiy izlanishlar uchun 300 ming AQSH dollari miqdoridagi grantga ega bo‘ladi.



O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash Vazirligi konferensiyalar zalida vazirlik, Toshkent tibbiyot akademiyasi hamda Janubiy Koreyaning KOICA tashkiloti o‘rtasida hamkorlik shartnomasi imzolandi.

Bo‘lib o‘tgan muzokaralarda Janubiy Koreya Tashqi ishlar vaziri o‘rinbosari, Janubiy Koreyaning O‘zbekistondagi muxtor elchisi, KOICA rahbari, professor Cho hamda

O‘zbekiston tomonidan Sog‘liqni saqlash vaziri o‘rinbosari A.Azizov, Toshkent tibbiyot akademiyasi rektori A.Shadmanovlar ishtirok etishdi.

Kelishuvga binoan, Toshkent tibbiyot akademiyasi COVID-19 profilaktikasi va bu boradagi ilmiy izlanishlar uchun 300 ming AQSH dollari miqdoridagi grantga ega bo‘ladi.



INNOVATSION TAFAKKUR: TIZIMLI YONDASHUV

"Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim", degan edi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev.



Ma'lumki innovasion – faoliyat uning sub'yekti bo'lib hisoblangan yoshlarimizdan – o'ziga xos iroda, diqqat-e'tibor, iste'dod, intuitiv jarayonlarni to'la ma'noda shakllantirishni tizimli asosda tashkil etilishi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, fikr yuritilayotgan jarayonda muhim rol o'ynovchi mediatasiya masalalariga e'tiborni jalb etish o'ta muhimdir. Chunki mediatasiya – o'z tafakkurini bir ob'yektga jamlanishi, yoshlar e'tiborini chalg'ituvchi barcha begona omillarni soqit qilish asosida fikr yuritish usuli bo'lib hisoblanadi.

Shuni qayd etish lozimki, yoshlarimizdagi innovasion tafakkurning fundamental asosi – birinchi navbatda oiladagi tarbiya, ikkinchidan esa uzluksiz ta'limning barcha bo'g'inlaridagi sifat parametrlariga uzviy bog'liq ekanligi hozirda to'la o'zining isbotini topmoqda.

Yoshlarda innovasion tafakkurni tizimli asosda shakllantirishi bilan bog'liq quyidagi bosqichlarni qayd etish mumkin.

Birinchi bosqich – ehtiros – ong osti bezlarining faollashuvi bilan bog'liqdir.

Ikkinchi bosqich – hayrat bo'lib hisoblanadi. Bunga dalil sifatida Abu Ali ibn Sinoning bakteriyalar mavjudligini Lui Pasterdan 2-3 asr oldin bashorat qilganligini qayd etish mumkin.

Uchinchi bosqich – esa hayotda hasad bilan emas, havas qilib yashashga o'rganish o'ta muhimdir. Uni quyidagi dalillarga tayanib asoslash mumkin. Masalan: Abu Rayhon Beruniy Amerika qit'asi borligini Kolumbdan oldin bashorat qilgan. Bundan tashqari, Beruniyning minerallar solishtirma og'irligini MOOS shkalasiga yaqin 0.01; 0.001% farq bilan aniqlab berganligi, Ulug'bek falakiyot ilmi bilan bog'liq yulduzlar jadvali tuzib bergani, akademik Habib Abdullayevning foydali qazilmalari joylashish qonuniyatlarini kashf etib, u hozirga qadar o'z ahamiyatini to'la saqlab turganligi, havas qilsa arziydigan dalillar sifatida qayd etish mumkin.

To'rtinchi bosqich – shijoat (mehnatsevarlik) hisoblanadi.

Naql qilishlaricha Abu Nasr Farobiy – Arastuning Metafizika asarini 40 marta o'qidimu, lekin uni yana qayta o'qishim kerak degan edi.

Yoshlarimizda innovasion tafakkurini shakllantirishda – yuqorida qayd etilgan omillar bilan bir qatorda ayniqsa zamonaviylik parametriga jiddiy e'tibor qaratish hozirga kelib yanada dolzarblashdi.

Bunga asosiy sabab dunyo miqyosida qarama-qarshilik hamda ziddiyatlar, jumladan xalqaro terrorizm, ekstremizm, separatizm, radikalizm kabi illatlarning avj olayotganligidir.

Bundan tashqari, ayrim yoshlarimizda virtual olamga intilish mayli o'ta kuchayib ketishi holatlari mavjudligi o'ziga xos xavf-xatarlarni vujudga keltirmoqda. Virtual olam – ob'yektiv jarayon bo'lib, unga to'siq qo'yib bo'lmaydi. Shuning uchun uni bartaraf etishda o'ziga xos iste'mol madaniyatini oila bo'sag'asidanoq shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ammo ana shunday holatga qaramasdan yoshlarimizda shakllanayotgan innovasion tafakkur orqali ular faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish, hozirgi davr talabi sifatida maydonga chiqmoqda. Bunga asosiy sabab hozirgi globallashuv davrida axborot oqimlarining o'ta tig'izlashib borayotganligidadir.

Respublikamiz aholisining qariyb 35 foizni 16 yoshgacha, 62 foizdan ziyodini 30 yoshgacha bo'lganlar tashkil etishidan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak innovasion tafakkur pirovard oqibatda jamiyatimiz ma'naviy hayotida yuksalish cho'qqilariga olib kelishi shubhasizdir.

Bu esa jamiyatimiz ma'naviy hayotida o'ziga xos sifat o'zgarishlarini vujudga keltirib, yangi O'zbekistonimiz taraqqiyoti bilan bog'liq uflarni ochishga xizmat qiladi.

Muhayyo AXMADJONOVA,
Toshkent tibbiyot akademiyasi davolash fakulteti
3-bosqich talabasi



Anjom uy ziynati, so'z inson ziynati.





TALABALIKKA BAG'ISHLOV

Agar Talabalikka bag'ishlov marosimida biror marotaba ishtirok etmagan bo'lsangiz, klassi yili albatta vaqt topib, qatnashib ko'ring.

Mingdan ziyod oppoq kiyimdagi yigit-qizlar ko'zida porlayotgan hayrat va havasdan qalbingiz taskin topadi. Ular quvonchiga beixtiyor sherik bo'lasiz.

Orzulari ro'yobga chiqayotgan umidli yoshlarning o'z maqsadlari sari qo'ygan ilk ishonchli qadamlari katta va nufuzli ilmiy jamoa – Toshkent tibbiyot akademiyasining ko'p ming sonli professor va o'qituvchilari, magistr va bakalavrlari tomonidan olqishlanganida esa qalbingizni faxr va iftixor tuyg'usi qamrab oladi.

Ha, bu yurt shunday odamlar yashaydi. Bir-birlariga hayrixoh, hamjihat. Bir bolaning quvonchini xuddi o'z farzandini singari qabul qila oladigan bag'rikenglar yurti bu.

An'anaga muvofiq bu yil ham shunday bo'ldi. Olmazor tuman hokimligi, tuman Yoshlar ittifoqi hamda Toshkent tibbiyot akademiyasi hamkorligida o'tgan ma'naviy tadbir chinakkam bayram tusini oldi.

Yangi o'quv yilida Toshkent tibbiyot akademiyasiga qabul qilingan bir yarim ming nafardan ziyod yoshlar va ularning ota-onalari ishtirok etgan kechada tibbiyot ilmining allomalari hayoti va faoliyatini aks ettiruvchi teatrlashtirilgan sahna ko'rinishi

mazkur tadbirning mazmun va mohiyatini belgilab berdi.

So'zga chiqqanlar TTAning yil sayin o'sib borayotgan nufuzi haqida gapirdilar.

Inson salomatligi yo'lida bor ilmi, kuch va qudrati, salohiyati va hayotini bag'ishlashga tayyor shifokorlarning metin irodasi va jasorati e'tirof etildi.

Tibbiyot ilmi ravnaqi yo'lidagi ilmiy ishlanmalari bilan yurtimiz sharafini dunyo mamlakatlari ko'z o'ngida namoyon etayotgan iqtidorli talabalar tashabbusi olqishlandi.

Yangi O'zbekiston yoshlarining ilmu fan taraqqiyotiga qo'shayotgan hissasi, oliy ta'lim tizimidagi mutloq yangicha qarashlarga ega yoshlar to'g'risida so'z bordi.

Bo'lajak shifokorlar tibbiyot ilmini egallashdan avval an'anaviy qasamyodni qabul qilar ekanlar, eng avvalo shu muqaddas Vatan oldidagi farzandlik burchiga sodiq qolajaklarini baralla bayon etdilar.

Kechaning dilbar va fayzli o'tishiga Toshkent tibbiyot akademiyasi qoshidagi "Navo-shifo" yoshlar musiqiy-teatr jamoasi munosib hissa qo'shdi.

**Toshkent tibbiyot akademiyasi
Matbuot xizmati**



“Yo ilming, yo hilming bo'lsin” deyiladi o'zbek xalq maqollaridan birida. Ma'lumki ilm – bu bashariyatning yo'lchi yulduzi, mayog'idir. Hilml esa – arab tilidan olingan bo'lib, halimlik, yumshoqlik, xushmuomalalik kabi mazmunlarga ega.

Boshqa kasbu kor, jabha va sohalarda yo ilming, yo xushmuomala bo'lsa yetarlik, bittasi bilan ishni bitirib ketaverasan. Ammo shifokor va tabibda ikkalasi ham uyg'unlashib kelishi lozim. Juda ko'p shifokor va tabiblarimiz bor, ilmi, salohiyati, iqtidori baland, ammo xushmuomalalikdan asar ham yo'q, tabiiyki xalq orasida ularning obro'-e'tibori ham yo'q. Ammo, shunday tib xodimlarimiz borki, ilmi haminqadar bo'lsa-da, muomalani qotiradi, baayni qondoshing yoki jondoshingdek ichingga kirib ketadi. Ammo, undagi halimlik ilm bilan uyg'unlashmaganligi bois ular ham katta muvaffaqiyatga erisha olmaydilar. Bularning barchasi muammo dolzarbligini ko'rsatib turibdi.

So'nggi paytlarda ijtimoiy tarmoqlarda, oynayi jahonda, davomli nashrlarda tib xodimlarining qo'polligi, muomalasi qattiqligi, xastahollar omiliga befarqligi haqida ko'plab ma'lumotlar paydo bo'lmoqda. Buning oqibatida aholi norozi bo'lib, ayrim hollarda tib xodimiga tajovuzkorlik, kaltaklab, haqoratlab ketish holatlari kuzatilmog'ida. Jumladan burnog'i yili vodiy klinikalaridan birida shifokorni kaltaklab, ko'zini chiqarganligi, Sirdaryoda tib xodimi pichoqlanganligi haqida ijimoiy tarmoqlarda ma'lumotlar paydo bo'ldi. Olisga borib nima qilamiz, poytaxtda ham bu borada ishlar talab darajasida emas. Men ko'p yillardan buyon Sog'liqni saqlash vazirligiga shifokorlar ustidan tushgan shikoyatlarni tekshirish bilan shug'ullandim, o'nlab ziddiyatli ishlarning shohidi bo'ldim. Aksariyat holatlarda tib xodimlarining uquvsizligi, malakasizligi yoki manfaatparastligi uchun emas, aynan qo'polligi, befarqligi bois shikoyat yozganliklarni ko'pchilik shikoyatchilar tan olganlar. Qissadan hissa shuki, tib xodimi qaysi lavozim, daraja sohibi bo'lishidan qat'iy nazar tibbiy deontologiya va kasb etikasini mukammal egallagan bo'lishi lozim.

O'zbekiston Respublikasida haqli ravishda bu sohasining otasi hisoblanmish ulug' ustoz, professor-terapevt Erkin Qosimov (Alloh rahmatiga olgan bo'lsin) o'zlari nihoyatda halim va xushmuomala zot bo'lishi bilan birgalikda “Shifokorning muloqot madaniyati va muomala san'ati” degan darslik ham yozganlar. Umri mobaynida tibbiyot oliygohlarida tibbiy deontologiya va kasb etikasi kafedrasini ochilishining tarafdori bo'lib yashadilar. Taassufki, bu olamshumul

TIBBIY DEONTOLOGIYA VA KASB ETIKASI NIMA UCHUN KERAK?

ish amalga oshmay qolib ketdi.

Biz nima uchun buni olamshumul deb atadik? “Dunyoda eng qiyin narsa muomala madaniyatidir: davlatlar orasidagi kelishmovchiliklar urushlarga, er-xotin orasida ziddiyatlar zurriyodlarning tirik yetim o'sishiga, ustoz-shogird orasidagi tushunmovchiliklar ilm-fanning oqsashiga olib keladi” degan edi Amerika davlatchiligining asoschisi Benjamin Franklin. Hadisi shariflarda “Ummatning eng yaxshisi tilidan, qo'lidan bironvga ozor yetmaganidir. Yaxshilikni chehrasi ochiq, xushro'y odamlardan izlang” qabilidagi ko'plab purma'no tavsiyalar keladi.

Albatta, bugungi kunda tib oliygohlarining ayrim kafedralarida kasb etikasi qisqa soatlarda o'tiladi, xolos. Bu alohida kafedra bo'lib, oliygohlarda psixologiya, deontologiya, falsafa, islom soatlari ko'paytirilishi kerak. Nima uchun? Insonning muomala madaniyati, ichki intizomi, insonsevarligi, vatanparvarligi ruhshunoslik, islom asoslari, falsafa bilan chambarchas bog'liq! Ushbu

ilmlarni mukammal egallamasdan turib tib xodimi hech qachon shirin til, mohir qo'l sohibi bo'la olmaydi! Bu isbotlangan teoremdir.

Bu borada ishlarning ahvoli qanday? Taassufki, juda yomon. O'tgan yili biz “Bolalar xirurgiyasi va pediatriyada tibbiy deontologiya va kasb etikasi” degan o'quv qo'llanmasini yaratdik. Bu bilan mazkur jabhadagi ma'naviy bo'shliqni to'ldirmoqchi bo'ldik. Ammo, o'quv rejadagi shu fanga ajratilgan soatlar kamligi uchun o'quv qo'llanma chop etilmadi. Xolisaniillo aytganda mazkur o'quv qo'llanmani chop etishda baayni avvalgilari kabi Akademiyadan mablag' so'ramasdan, o'z hisobimizdan chop etib, xayriya tariqasida oliygohlar, kollejlar, texnikumlar kutubxonalariga tarqatmoqchi edik. Ikki yil muqaddam

Bolalar urologiyasidan lotin va kirill alfavitida 40 bosma taboqlik, akademiya yordamisiz, o'zimizning hisobimizdan o'quv qo'llanmasi chop etib kutubxonalarga tarqatgan edik. Xullas, maqolda keltirilganidek “Gap ko'p, o'tin oz”.

1978 yili fazogir A.Pavlov koinotdan turib yer sharini kuzatganida aytgan qanoti gaplari yodimizdan chiqmaydi. “Raketa illyuminatoridan ona yerni-moviy sayyorani ko'rib turibman, u juda kichkina, baayni himoyaga muhtoj go'dakdek namoyon bo'lmoqda. Uni chaqaloqdek silagim, yaxshi gapirgim, maqtadim, o'pgim kelayapti. Afsuski, biz eng ongli mavjudot – odamlar bu himoyasiz go'dakni ko'proq ranjitib tahqirladik. Qani endi insoniyat uchun bu borada mukammal bir qo'llanma yaratilsa”. Kosmonavt haq, agar ro'yi –zaminda har kim vijdonni turmush tarzi deb, burchni qonun deb, ahloqni qomus deb yashasa olam guliston bo'lardi. Bularning barchasini deontologiya va kasb etikasi o'rgatadi. Mas'ullar e'tibor bering, hali ham kech emas.

Alijon ZOHIDIY,
Rossiya “Zdorovye cheloveka i ekologiya” Xalqaro ilmiy akademiyasi akademigi,
O'zbekiston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasi a'zosi,
Qutbiddin NIZOMOV,
oliy toifali allergolog-shifokor,
Sog'liqni saqlash a'lochisi



Barhayot siymolar

**QAT'IYATLI SHIFOKOR VA MOHIR
PEDAGOG**

Ikki eshik orasi deya ta'riflanadigan bu qadim dunyoda ming-minglab inson yashab o'tsa-da, har kimning o'z o'rni, o'z hayot yo'li bo'ladi. Kimdir chaqmoq yanglig' chaq nab o'tsa, kimlardan bir iz ham qolmaydi, sezilmay dunyoni tark etadi, kimlardan nafaqat yillar, o'n yillar, balki asrlarga muhrlangan xotiralar qoladi. Bu o'sha ikki eshik orasidagi masofani kim qanday bosib o'tishiga bog'liq. Shoir yozganidek:

*Dunyoga kelamiz nurli sham misol,
Yonib nur taratar har soniyamiz.
Yugurib-yelamiz misoli shamol
Qayga oshiqamiz buni bilmaymiz...*

Habibulla Abduqodirov ana shunday dunyoga nurli sham misol yonib, nur taratib yashagan inson edi. U Surxondaryo viloyati Denov tumanining Saroykamar qishlog'ida 1933 yilda tug'ilgan.

Yosh Habibulla hali qishloq maktabida o'qib yurgan kezlari tibiyyotga qiziqardi. Otasi Abduqodirjon ota va onasi Mehriniso aya buni ko'rib quvonar: «O'g'lim, sendan umidimiz katta, yaxshi o'qisang, albatta shifokor bo'lasan, qishlog'imizda do'xtirlarning qadri juda o'tgan», deb rag'bat berishardi.

Habibulla maktabni tugatib, Oxunboboyev nomli tibbiyot texnikumiga o'qishga kiradi. Texnikumni muvaffaqiyatli tugatgach, 1953 yili institutga o'qishga kiradi. 1959 yili institutni muvaffaqiyatli yakunlab, Marg'ilon shahrida oilaviy poliklinika va tibbiyot birlashmasida shifokor-infeksionist bo'lib ishlaydi.

1965 yili Qoraqalpog'istonda vabo epidemiyasi tarqaldi, shunda Habibulla Abduqodirovich bir necha oy davomida kasallik o'chog'ida xizmat qiladi. Birinchilardan bo'lib kasallikni kelib chiqish sabablarini aniqlagan va epidemiya o'chog'ini tugatishga katta hissa qo'shgan.

1971 yili Habibulla Abduqodirov tibbiyot fanlari nomzodligi dissertasiyasini yoqlab, ToshMI yuqumli kasalliklar kafedrasida dastlab assistent, 1985 yildan boshlab esa, dosentlik lavozimida faoliyat olib borgan. 1987 yili kafedra mudiri bo'lib, 1988 yildan mudirlik vazifasini bajaruvchi bo'lib ishladi.

1993 yili «Yuqumli kasalliklar kafedrasini» tajribadagi «Yuqumli tropik kasalliklar kursi mustaqil kafedrasini»ga

aylantirildi va Habibulla Abduqodirov bu yerda dosent lavozimida ishladi.

Ish faoliyatlari davomida Habibulla Abduqodirov ko'plab darsliklar, o'quv qo'llanmalari va o'quv uslubiy qo'llanmalarni yaratishda mualliflik va hammualliflik qilgan. Bu yaratilgan adabiyotlardan hozirgi kunda tibbiyot oliygohlari talabalari, shifokorlar, klinik ordinatorlar, magistrlar keng miqyosda foydalanib kelmoqda.

Habibulla Abduqodirov hamisha va har vaqt yangiliklardan boxabar bo'lishga intiladilar, yuqori professionalligi, qat'iyatligi, mehnatsevarligi, kasbiga sadoqatligi bilan ajralib turadi.

Domla mehribon va e'tiborli, kamtar, samimiy, to'g'riso'z va halol inson, yuqori malakali mutaxassis va tashkilotchi, olim va iqtidorli pedagog edi. Barcha insonlarga hurmat va e'tibor, mehr va muhabbat bilan qarar edi.

Habibulla Abduqodirov joriy yilning 24 yanvar kuni vafot etdi. Bugungi kunda Habibulla Abduqodirov haqida gap ketsa uni bilganlarning aksariyati yuksak muomala madaniyatiga ega inson bo'lganligini aytishadi va katta hurmat bilan eslashadi. Aslida bu ham bir baxt. Chunki azal-azaldan yaxshi insonlar o'z ortidan yorug' izlar qoldirib ketganlar, dunyodan o'tganidan keyin ularning ikkinchi umri go'zal xotiralarda davom etavergan.


Uning ko'p qirrali mehnat faoliyati, kasbga sadoqat, ilmiy qiziqishlarning kengligi qat'iyat va odamiylik hislatlari respublikamiz shifokorlari va uni yaqin bilgan insonlar uchun o'rnak bo'la oladi.

Shogirdlari, hamkasblari xotirasida bu betakror insonning yorqin timsoli abadiy saqlanib qoladi.

**Hamidulla MAGZUMOV,
Yuqumli va bolalar yuqumli kasalliklari
kafedrasini dotsenti**



Tilga e'tibor — elga e'tibor.



TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI QUIYIDAGI LAVOZIMLARGA TANLOV E'LON QILADI

(2021 yil oktyabr)

No	Kafedra	Lavozim, shtat birligi
1-son davolash fakulteti		
1.	1-son ichki kasalliklar propedevtikasi	assistent – 0,75;
2.	1-son umumiy va bolalar jarrohligi	umumiy jarrohlik: assistent – 0,75;
3.	Nevrologiya va tibbiy psixologiya	assistent – 0,75;
2-son davolash fakulteti		
1.	Onkologiya	assistent – 1,0
2.	1-son travmatologiya, ortopediya va XDJ	assistent – 1,0
3.	Bolalar kasalliklari propedevtikasi	assistent – 1,0
4.	1-son ichki kasalliklar	katta o'qituvchi – 1,0;
Tibbiy pedagogika fakulteti		
1.	Normal va patologik fiziologiya	normal fiziologiya: assistent – 1,0 patologik fiziologiya: assistent – 1,0
2.	Reabilitologiya, xalq tabobati va jismoniy tarbiya	assistent – 1,0
3.	2-son fakultet va gospital terapiya	assistent – 1,0
4.	2-son travmatologiya, ortopediya, XDJ va neyrojarrohlik	assistent – 1,0
Tibbiy profilaktika fakulteti		
1.	Gistologiya va tibbiy biologiya	gistologiya: assistent – 1,0
2.	2-son umumiy xirurgiya	assistent – 1,0
3.	Gematologiya, transfuziologiya va klinik laboratoriya	Gematologiya, transfuziologiya: assistent – 1,0 klinik laboratoriya: assistent – 1,0
Menejment, tibbiy biologiya, tibbiy biomuhandislik va OMX fakulteti		
1.	Ijtimoiy fanlar	o'qituvchi – 1,0
2.	O'zbek va xorijiy tillar	Chet tili: o'qituvchi – 1,0
3.	Tibbiy va biologik kimyo	Biologik kimyo: katta o'qituvchi – 1,0; assistent – 1,0
4.	Biotibbiyot muhandisligi, informatika va biofizika	assistent – 1,0
5.	Tibbiy radiologiya	assistent – 1,0
6.	Allergologiya, hamshiralik ishi	assistent – 1,0

Hujjatlar tanlov e'lon qilingan kundan boshlab bir oy davomida Toshkent tibbiyot akademiyasining devonxona va arxiv bo'limida qabul qilinadi.

Manzil: Olmazor tumani, Farobiy ko'chasi, 2-uy.

MUASSIS: TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI	MUHARRIR TURDIQUL BOBOMURATOV	TAHRIR HAYATI: Q.Nizomov (Bosh muharrir o'rinbosari), O.Hazratov, A.Zohidiy, N.Hakimova, L.Abduqodirova, M.Hasanova	Gazeta Pentium-IV kompyuterida sahifalandi va Toshkent Tibbiyot akademiyasi RISOGRAFida 400 nusxada chop etildi. Manzilimiz: Toshkent shahri, Farobiy ko'chasi, 2-uy Nashr uchun ma'sul Q.Nizomov
Gazeta Toshkent Matbuot va axborot boshqarmasida 2007-yil 15-yanvarda 02-0049 raqam bilan ro'yxatga olingan		Mualliflar fikri tahririyat nuqati nazaridan farqlanishi mumkin. Maqolalardagi ma'lumotlar uchun mualliflar javobgardir _____ Bepul tarqatiladi	